



---

## **SOLIQ NIZOLARIDA TOMONLARNING MANFAATLARINI HIMOYA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI**

**Qurbonov Abdulaziz Sulton o'g'li**

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti, Toshkent, O'zbekiston

### **Annotatsiya:**

Ushbu tadqiqot soliq nizolarida tomonlarning manfaatlarini himoya qilishning huquqiy asoslari yoritadi. Shuningdek, mazkur ishda O'zbekiston Respublikasida soliq nizolarini hal etish jarayonida tomonlarning huquq va manfaatlarini huquqiy himoya qilish masalalari o'rganiladi. Soliq munosabatlari doirasida yuzaga keladigan nizolar, ularning kelib chiqish sabablari, ko'rib chiqish tartibi hamda tomonlar manfaatlarini muhofaza qilishda qo'llaniladigan normativ-huquqiy asoslar tahlil qilinadi. Soliq to'lovchilarning konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash, ularni sud va ma'muriy organlar orqali samarali himoya qilish mexanizmlari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** soliq nizolari, soliq to'lovchilar, soliq agenti, ma'muriy shikoyat.

### **Аннотация:**

В данной работе рассматриваются правовые основы защиты интересов сторон в налоговых спорах. Также в данной работе изучаются вопросы правовой защиты прав и интересов сторон в процессе разрешения налоговых споров в Республике Узбекистан. Анализируются споры, возникающие в рамках налоговых правоотношений, причины их возникновения, порядок их рассмотрения, а также нормативно-правовые акты, применяемые для защиты интересов сторон. Освещены механизмы обеспечения конституционных прав налогоплательщиков и их эффективная защита через судебные и административные органы.

**Ключевые слова:** налоговые споры, налогоплательщики, налоговый агент, административная жалоба.



### Abstract:

This study examines the legal basis for protecting the interests of the parties in tax disputes. Also, this work studies the issues of legal protection of the rights and interests of the parties in the process of resolving tax disputes in the Republic of Uzbekistan. Disputes arising within the framework of tax relations, their causes, the procedure for their consideration, and the regulatory and legal frameworks used to protect the interests of the parties are analyzed. Mechanisms for ensuring the constitutional rights of taxpayers and their effective protection through judicial and administrative bodies are highlighted.

**Keywords:** tax disputes, taxpayers, tax agent, administrative complaint.

Soliq nizolari barcha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiy tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular davlatning soliq siyosati, moliyaviy barqarorlik, tadbirkorlik muhiti va jamiyatning huquqiy tizimi bilan bevosita bog‘liqdir. Soliq organlari bilan tadbirkorlar, yuridik shaxslar yoki jismoniy shaxslar o‘rtasida yuzaga kelgan bu nizolar ko‘pincha yirik moliyaviy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu bois, ularni hal etishda taraflarning huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvor ahamiyati ega hisoblanadi.

Soliq nizolari mohiyatini aniqlashtirish, avvalo, ushbu turdagi nizolarning huquqiy tabiati va yondashuvlarini o‘rganishdan boshlanadi. Rossiyalik yuridik olim S.V. Ovsyannikov o‘zining 1996-yilda chop etilgan tadqiqotida soliq nizosiga quyidagicha ta’rif beradi: «Bu - soliqlarni hisoblash va to‘lash bilan bog‘liq huquqiy ziddiyat bo‘lib, u qonunchilikda belgilangan tartibda vakolatli organlar tomonidan ko‘rib chiqiladi. Soliq nizosining bir tomonida doimo davlat, boshqa tomonida esa - soliq to‘lovchi turadi». Ushbu yondashuv soliq nizolarining ommaviy-huquqiy xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi. [1. 145-146.] Bundan tashqari N.L. Bartunayeva soliq nizosini quyidagicha talqin qiladi: «Bu – ma’muriy tartibda hal etilmagan, soliq organi va soliq to‘lovchi o‘rtasida yuzaga keladigan, huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan qarama-qarshilik bo‘lib, unda odatda soliq majburiyatlarining mavjudligi, hajmi, shakli, to‘lov muddati va boshqa elementlar ustida bahs yuritiladi». [2. 146-147]



## International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30<sup>th</sup> June, 2025

Soliq nizolarida subyektlarga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksida subyektlarga ta'rif berib o'tilgan. Jumladan, Soliq to'lovchilar, soliq agentlari va vakolatli organlar soliq munosabatlarining subyektlari hisoblanishi belgilangan. Shuningdek, soliq kodeksiga muvofiq zimmasiga belgilangan soliqlar hamda yig'implarni to'lash majburiyati yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslar soliq to'lovchilar deb e'tirof etilishi ham mustahkamlangan. Bundan tashqari soliq kodeksida soliq agentlariga ham quyidagicha ta'rif berilgan. Soliq kodeksiga muvofiq zimmasiga soliqlarni hisoblab chiqarish, soliq to'lovchidan ushlab qolish va budjet tizimiga o'tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslar soliq agentlari deb e'tirof etiladi deb belgilangan.[3] Soliq nizolarida taraflarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida muhim qoidalar mustahkamlab qo'yilgan, Jumladan, Har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli.

Har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqi kafolatlanishi mustahkamlangan. [4.] Bu kabi qoidalar oliy yuridik kuchga ega bo'lgan konstitutsiyamizda mustahkamlanganligi buzilgan huquqlarni tiklashda va himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksi ham soliq nizolarida taraflar manfaatlarini himoya qilishda maxsus manba hisoblanadi. Soliq kodeksida soliq huquqiy munosabat subyektlarining huquq va majburiyatlari belgilangan. Soliq kodeksining 21-moddasida soliq to'lovchilar huquqlari mustahkamlangan. Jumladan, soliq to'lovchilar quyidagi huquqlarga ega.

soliq organlaridan va boshqa vakolatli organlardan (ularning vakolatlari doirasida) amaldagi soliqlar to'g'risida, soliq to'g'risidagi qonunchilikdagi o'zgarishlar haqida, soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida axborotni, soliq



## International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30<sup>th</sup> June, 2025

hisobotining va arizalarning shakllarini, shuningdek ularni to'ldirish tartibi haqida tushuntirishlarni bepul olish

o'z soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan soliq organlarida va boshqa vakolatli organlarda mavjud bo'lgan ma'lumotlarni olish

soliq solish obyektlarini hisobga olishda, soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashda o'zlari yo'l qo'ygan xatolarni mustaqil ravishda tuzatish

soliq solish obyektlarini hisobga olishda, soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashda o'zlari yo'l qo'ygan xatolarni mustaqil ravishda tuzatish va boshqa huquqlarga egaligi mustahkamlangan. Bundan tashqari, soliq kodeksida soliq tekshiruvlari va soliq organlarining hujjatlari va ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat berish tartibi va boshqa muhim qoidalar mustahkamlab qo'yilgan. .

Bundan tashqari, soliq huquqiy munosabatlarda taraflar manfaatlarini himoya qilishda bir nechta normativ-huquqiy hujjatlar mavjud. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyul kungi 5490-sonli "Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlar to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 15 sentyabr kungi 6314-sonli "Tadbirkorlik sub'ektlari uchun ma'muriy va soliq yukini yanada kamaytirish, biznesning qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 7 yanvar kungi 1-sonli "Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va soliq tekushiruvlarini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi Qarori va boshqa ko'plab huquqiy hujjatlar qabul qilingan .[6.] Bunday normativ-huquqiy hujjatlarning mavjudligi va qabul qilinishi soliq huquqiy munasabatlarda taraflarning huquqiy manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega.

### Xulosa

Soliq nizolarini ko'rishda taraflar huquq va manfaatlarini himoya qilish dolzarb va muhim masala hisoblanadi. Soliq huquqiy munosabatlarning murakkabligi, soliq to'lovchilarning huquqiy savodxonligi darajasi va soliq organlari faoliyatidagi ayrim



## International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30<sup>th</sup> June, 2025

noaniqliklar ushbu nizolarning kelib chiqishiga sabab bo'lmogda. Bundan tashqari, O'zbekiston sharoitida soliq nizolari ko'pincha umumyurisdiksiya sudlari iqtisodiy, fuqarolik va ma'muriy sudlar tomonidan ko'rib chiqilmoqda, biroq bu sudlarning moliyaviy va soliq huquqiy sohaga ixtisoslashmaganligi taraflar huquqlarining buzilishi, ishni ko'rishni protsessual jihatdan cho'zilishi va adolat tamoyillariga putur yetkazmoqda. Shu bois, soliq nizolarida taraflar manfaatlarini ishonchli himoya qilishda taraflarning huquqiy savodhonligini muntazam ravishda oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish lozim. Shuningdek, nizo kelib chiqqan taqdirda soliq nizolarini tezkor va adolatli ko'rib chiqadigan ixtisoslashgan soliq sudlarini yaratish ham taraflarning huquqlarini himoya qilishda asos bo'lib xizmat qiladi.

.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Овсянников С.В. Налоговые споры в арбитражном суде (общая характеристика) / С.В. Овсянников // Правоведение. - 1996. - № 3. - С. 145-146.
2. Бартунаева Н.Л. Налоговые споры. Распределение обязанности по доказыванию / Н.Л. Бартунаева // Вестн. Бурят. ун-та. Сер. 12: юриспруденция. - 2006. - Вып. 3. - С. 146-147.
3. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (yangi tahriri). Qabul qilingan sana: 30.12.2019. Kuchga kirgan: 01.01.2020. – Lex.uz portali: <https://lex.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
5. Yusupov, M. N. (2021). Sud-huquq tizimining ixtisoslashuvi va uning islohotlar jarayonidagi o'rni. "Huquqiy islohotlar" ilmiy jurnali, №2, 45–54.
6. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi milliy bazasi ( lex.uz)